

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## XORAZM ADABIY MUHITIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZINING YARATILISHI

**Mahbuba O‘razbayeva,**  
*Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)*

*Annotatsiya.* Maqolada Xorazm adabiy muhitida Jaloliddin Manguberdi obrazining yaratilishiga oid fikrlar bayon qilindi. Xorazmda yashab ijod qilgan shoir, dramaturg va yozuvchi Erkin Samandarning Jaloliddin obrazini yaratishdagi urinishlari tadrijiy tahlil qilindi. “Xiva”, “Xorazm farzandiman”, “Temir qoziq bog‘i” nomli she‘rlari, “Ajdodlar qilichi”, “Yot hujra” dramasi va tugallanmagan “Hayratli dunyo” romani tahlilga tortildi.

**Kalit so‘zlar:** Jaloliddin Manguberdi, drama, fojia, tarixiy shaxs, sulton, qilich, kurash, jang, hujra.

Jahon adabiyotida Xorazmshohlar sulolasidan bo‘lmish Jaloliddin Manguberdi obrazini gavdalantirgan ko‘plab asarlar yozilgan, ularga bag‘ishlangan tadqiqotlar yaratilgan. Turkiy xalqlar adabiyotining bir qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyotida ham xorazmshohlar va uning asl qahramoni Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlangan asarlar talaygina. Jaloliddin obrazi M.Shayxzoda, A.Oripov, Azim Suyun kabi turli avlod vakillari yaratgan asarlarda vatan ozodligi uchun kurashuvchi mard, jasur xalq qahramoni sifatida tasvirlangan. Xorazm adabiy muhitida ham uning siymosini yaratish, xalq qahramoni sifatidagi jasoratini yosh avlodlarga singdirish, va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltiruvchi asarlar yaratilmoqda. Xususan, butun faoliyati davomida Xorazmda yashab ijod qilgan Erkin Samandarning o‘nga yaqin asarlari aynan Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlanadi. Yozuvchi, shoir, dramaturg Erkin Samandar Jaloliddin Manguberdi haqida bir qancha she‘rlar va balladalar, 2 ta tarixiy drama, 1 ta kinodoston hamda 1 ta roman (tugallanmagan) yaratdi. Mazkur asarlarini jamlab 1999-yilda “Jaloliddin Manguberdi” kitobini e‘lon qildi. Yozuvchi kitob so‘zboshisida Jaloliddin Manguberdi haqida asar yozish uning ko‘pdan orzusi ekanligini aytib o‘tadi. “Jaloliddin Manguberdi haqida asar yozish orzusi oltmishinchi yillarda yuragimga cho‘g‘ tashlagan. Avval baytlar bitdim, she‘rlar yozdim”,<sup>1</sup> deydi muallif mazkur kitobning muqaddimasida. Haqiqatan ham muallifning shu yillari “Xiva”, “Xorazm farzandiman” she‘rlari, Xorazmshoh Alouddinning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi bilan bo‘lgan so‘nggi uchrashuvi tasvirlangan “Olis nidolar”, Jaloliddin Manguberdi onasi, ayoli va farzandlarini dushman – Chingiz qo‘liga tushmasin deb noiloj daryoga oqizgani haqidagi “Ona va o‘g‘il” balladalarining e‘lon qilinganini ko‘ramiz. Shoir “Xiva” she‘rida:

<sup>1</sup> Samandar E. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999., Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. 5-b.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Jaloliddin bo‘lib tulporda daryoni kechib yoxud” deb hayqirsa, “Xorazm farzandiman” she‘rida:

“Mard Jaloliddin yiqildi jangda shu tuproq uchun,  
Men shu tuproq vorisiman, men shu el farzandiman”.

deya yurt uchun Chingiz bilan mardlarcha kurashgan Jaloliddin jasoratini eslaydi. O‘zi ham shu el farzandi va vorisi ekanligidan faxrlanadi. Yozuvchi shoh va sarkarda Jaloliddin haqida katta janrlarda asar yozishga undagan narsa yetmishinchi yillarda Ko‘hna Urganchga bo‘lgan sayohatida yanada ulg‘ayganini aytadi. Urganchdagi Jaloliddinning Temir qoziq bog‘i bir vaqtlar eng go‘zal bog‘lardan biri bo‘lganligi, ammo yillar o‘tib mazkur bog‘ xaroba ahvolga tushib qolgani yozuvchini chuqur o‘yga toldiradi. Shuning natijasi o‘laroq shoirning “Temir qoziq bog‘i” she‘ri yaratiladi.

Temir qoziq bog‘in jannat atamish.  
Urganch bo‘ynidagi nodir javohir,  
Turoni zaminga ziynat atamish.  
Bunda Jaloliddin berganda guring...<sup>2</sup>

She‘rda shoir ta‘kidlaganidek, Temir qoziq bog‘i bir vaqtlar eng so‘lim go‘shalardan biri bo‘lgani, shu bois shoir uni Jannatga qiyoslagani, bu bog‘da Jaloliddin o‘z yaqinlari va do‘stlari bilan guringlar<sup>3</sup> qilgani, ammo oradan ming yillar o‘tib bog‘ qarovsiz ahvolda, qamishzor va yantoqzorga aylangani shoirni chuqur o‘yga toldiradi. Ammo shu kimsasiz qamishzordagi bir yantoq ustida bulbul ovozi eshitib shoir hayratlanadi. Erkin Samandar bu holni bulbulning nolasi deb biladi.

Adashdik shekilli, bu o‘sha bog‘mas,  
Qani ra‘nolari, binafshalari (O‘sha manba. 6-bet).

Saksoninchi yillarga kelib ijodkor Jaloliddin hayoti va jasoratini kengroq yoritishni ko‘ngliga tugadi. Chunki shu yillarda “An-Nasaviyning Z.Bunyodov tomonidan nashr ettirilgan sulton Jaloliddin tarixiy asarini o‘qiyverib yod olib yubordim..., Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” kitobi, M.Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi, Ozarboyjon yozuvchisi M.O‘rdubodiyning “Qilich va qalam”, gruzin yozuvchisi G.Abashidzening “Yaldo kechasi” romanlarini, olimlarning qator ilmiy ishlarini...”<sup>4</sup> o‘qigan, Jaloliddin Manguberdi haqida anchagina ma‘lumotlarni to‘plagan edi. To‘plangan ma‘lumotlarni issig‘ida qog‘ozga tushirishni niyat qilib yozuvchi Gruziyadagi (Jaloliddin o‘tgan yo‘l) ijod bog‘iga ham borib kelganligini aytib o‘tadi. Yozuvchi Jaloliddin Manguberdi hayotini o‘z

<sup>2</sup> Samandar E. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999., Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. 6-b.

<sup>3</sup> Guring – Xorazm shevasida suhbat degani

<sup>4</sup> Samandar E. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999., Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. 7-b.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

romanida to‘liq qamrab olmoqchi edi. Ammo roman ba‘zi sabablarga ko‘ra tugallanmay qoldi. Shu bois qolgan o‘rinlarini muallif drama shaklida yozishga kirishdi. Chunki muallifning o‘sha yillari Xorazmdagi Ogahiy teatri bilan hamkorligi ancha kuchaygan va u tugallanmay qolgan romanining mantiqiy davomi sifatida “Ajdodlar qilichi” nomli she‘riy tarixiy drama, “Yot hujra” nomli ikki qismdan iborat tarixiy fojia, “Sen Xorazm malikasidan” kinodostonini yaratdi. E.Samandar “Hayratli dunyo” romanidan “Shoh kechikkanda...”, “Ot bilan... masjidga”, “Ona va daryo”, “Hayratli dunyo”, “Arslonga ... bo‘ri hamlasi”, “Ardagi uchrashuv”, “Sevgi rishtasi” faslli parchalarni “Jaloliddin Manguberdi” kitobiga kiritgan. Romanda Alouddin Xorazmshohning o‘z xatosini anglaganligi, Chingiz bosqiniga dosh bera olmay butun davlatini olib qochib ketishi, adrlkda yolg‘iz qolib Jaloliddinga ishonmasdan katta xatoga yo‘l qo‘ygani anglagan shohning afsus-nadomatlarini jonli ravishda tasvirlanadi. Alouddin Xorazmshohning o‘limi oldidan Jaloliddinni chaqirib adrlkda oq fотиha berib qilichini tutqazgani, ota va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilalishi bilan roman xotimalanadi.

“Ajdodlar qilichi” nomli she‘riy tarixiy dramasida Jaloliddinning Chingizxon bilan kurashiga e‘tibor qaratilgan. Birlashish haqidagi aka-ukalarining rad javobini olgan Jaloliddinga butun Xorazm eli aka-uka tutinadi. Ammo dushmanning qo‘shini oldida bu jipslashish ularga kamlik qiladi. Natijada drama oxirida Jaloliddin onasi va ayolini, farzandlarini daryoga tashlab o‘zi oti bilan shu daryoni kechib o‘tadi. Dramaturg tarixiy dramada tarixiy shaxslardan tashqari Ona – volida qiyofasidagi ona zamin va Hur qizlar obraziga ham murojaat qiladi. Jaloliddin chorasiz qolgan, najot yo‘lini izlab sarson bo‘lganida Ona zamin va Hur qizlar baralla unga dalda beradi. Ona zamin va Hur qizlar Jaloliddin uchun ko‘z yosh to‘kadi.

ONA

...Olib chiqqay albat masih seni girdobdan,  
Mening esa masihim sen, o‘g‘lim, dilbandim...

HUR QIZLAR

Volidayi zorning  
Diydasidan yosh oqar.  
Volidayi zorga  
Yovuz raqib tosh otar.  
Toshdan qo‘rqmas volida,  
Chin o‘g‘li bor qoshida.

(O‘sha manba 21-bet)

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Yot hujra” nomli ikki qismli tarixiy fojiasida Jaloliddinning so‘nggi kunlari qalamga olingan bo‘lib, Jaloliddin yarador ahvolda begona bir hujraga olib kelinadi. Qishloq ahli esa uni yurtiga bostirib kelishda ayiblab o‘limga mahkum qilmoqchi bo‘lishadi. Akasining o‘limidan alamzada Solmon Jaloliddinga pichoq urib o‘ldiradi. Drama konfliktlar asosiga qurilgan bo‘lib, yaralangan Jaloliddin va hujra sohibi ibn Ammor vatan taqdirini o‘ylovchi obraz sifatida tasvirlansa, ibn Ammorning o‘g‘li Abu Zayd hamda uning qo‘shnisi Solmon o‘z qasos o‘ti bilan yashaydigan qahramonlardir. Jaloliddin Kavkazorti xalqlarini ham jiplashishga chorlaydi. Ularni yaqinda bostirib kelajak Chingiz hujumidan ogohlantirmoqchi edi. Ammo Kavkazorti shohi ham xalqi ham unga ishonmadi. Natijada butun musulmon o‘lkalarini Chingiz qo‘shinlari egalladi.

Dramaturgning asarlarini o‘qir ekanmiz, Erkin Samandar Jaloliddin Manguberdi obrazini gavdalantirishda tarixiy ma’lumotlarga tayanganligini ko‘ramiz. Shu bilan birga yozuvchi Xorazmshohlar saltanatining qulash sabablarini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olgan. Asarlarini o‘qish jarayonida siz qahramon bilan birgalikda iztirobga tushasiz. Bizningcha yozuvchi Jaloliddin Manguberdi haqidagi romanini to‘liq tugallaganda adabiyotimizdagi eng yaxshi, badiiy jihatdan pishiq tarixiy asarlar ro‘yxatidan joy olar edi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samandar E. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999., Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati.270 b.
2. O‘razbayeva M. Ayol xarakterini ochishda badiiy nutqning o‘rni. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
3. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX ASR OZARBAYJON ADABIYOTIDA GANJAVIY OBRAZI TASVIRI. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman material. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-berlar.
4. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
5. Qalandarova, D. Z. (2024). EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI (“Alpomish” dostoni misolida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 79-83.
6. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
7. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.

## “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

8. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SYN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
9. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.
10. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
11. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
12. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
13. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
14. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
15. Rasulova, U. (2024). Insoniyat: asliyat va irsiyatning badiiy talqini. *Uzbekistan: yozyk i kultura*, 1(1), 33-45.